

SO'Z TAKRORIGA ASOSLANGAN BADIY SAN'ATLARDA SEMANTIK-STILISTIK MUNOSABATLAR

Abdusalomova Dunyo

Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farida Afroz she'riyatida badiiy san'atlarni qo'llashga doir fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: takrir, anafora, epifora, shoir, lafziy san'atlar

Takrorga asoslangan so'z o'yini mumtoz adabiyotda keng tarqalgan uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. O'zbek adabiy tilida shakl va ma'noda hamohanglik, kuchli ta'kidni talab qilgan paytda she'rda so'z, jumla va hatto butun-butun misralar ham takrorlanib kelishi mumkin.

Takrorga asoslangan san'atlarning hammasida ham so'z, jumla yoki misralar bir xil shaklda takrorlanmaydi, turli ma'nolarda semantik munosabatni ifodalash uchun so'zlarning o'zni va ayrim o'rinlarda ularning shaklini o'zgartirib ham takrorlash mumkin.

O'zbek tilshunosligida hozirgi o'zbek she'riyati tili uchun xarakterli bo'lgan bir qator lafziy san'atlar shoir leksikasi materiallari asosida har bir so'zning o'zni, takrori, shakli ularning bir-biriga munosabati tahlil etilgan. Ulardan namunalar keltiramiz:

Takrir asli arabcha so'z bo'lib, bir yoki bir necha so'zni, ba'zan ma'lum satrni takrorlab qo'llash demakdir¹. Bu san'at ba'zida takror yoki mukarrar deb ham ataladi.

Olib borilgan kuzatishlarda takrir san'ati ham qadimiy hodisa ekani ko'rsatildi. Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq» asarida takrir san'atining namunalari mavjudligi aniqlangan. N. Mallayevning ta'kidlashicha, Ahmad Yugnakiy o'z asarida «... takrir, alliteratsiya kabi poetik usullarni ham qo'llaydi. Bular badiiy misralarning mazmunini boyitish va uning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi».

Takror va uning turlari yuzasidan tilshunoslar turli fikrlar bildirganlar. O'zbek tilidagi takroriy so'zlar leksika va morfologik sathlarda keng tahlil qilinmagan. Ular uslub jihatdan hali chuqur o'rganilganicha yo'q. Ba'zi ishlarda takrorning anaforik takrorlar, epiforik takrorlar, aralash (doiraviy) takrorlar kabi tiplari tilga olinadi. Badiiy asarda, barcha stilistik vositalarda bo'lgani kabi, takrorning zimmasiga ham nutqiy vositalarga xos emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Shuning uchun ham ijod jarayonida ularga murojaat qilish qalamkashdan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi va ana shunday mehnat mevasi bo'lgan takrorlargina badiiy usul uchun chinakam stilistik usul sifatida xizmat qiladi. So'zni takror qo'llashidan asosiy maqsad fikrni bo'rttirib ta'kidlash, mazmunni obrazli va ta'sirli ifodalashdir. Shoir o'z asarlarida takror san'atini yaratishda leksik va grammatik kategoriyalarning

deyarli hammasidan foydalanadilar. Takror san'ati, ayniqsa, alliteratsiya, assonans, anafora, epiforalar asosida hosil bo'ladi.

Anafora misralar boshida bir so'z yoki birikmani o'zgarishsiz, aynan takrorlaydi.

Masalan:

Yaxshiyam, bilaman yetti pushtimni,

Yaxshiyam, tug'ildim ona yurtimda.

Yaxshiyam, bolalar sen deb gapirmas,

Yaxshiyam, rafiqam ko'tarmas qadah.

Yaxshiyam, so'z o'ynab topmasman boylik.

Yaxshiyam, bilaman halol mehnatni.

Yaxshiyam, bir kuni o'lsam do'stlarim

Karnay-surnay chalib, ichishmas araq. («Yaxshiyam»)

Bu yerdagi so'z takrori shoirning o'sha so'zdan keyin keladigan fikrlarining xulosasiga asoslangan. Butun she'r davomida **yaxshiyam** so'zining anafora shaklida takrorlanishi unga alohida urg'u berilishi ma'noni kuchaytirishga, o'sha so'zning mohiyatini kuchliroq, bo'rttiribroq ko'rsatishga xizmat qilgan.

Anafora nutqni o'ziga xos tarzda shakllantirib, uning kompozitsion tuzilishiga ijobiy ta'sir etadi. Nutqning eng asosiy-keskin nuqtasini belgilaydi. Shoira har bir misra boshida **yaxshiyam** so'zini takrorlab, hozirgi adabiy til va xalq jonli tilidagi yaxshi ham so'zini eski adabiy tildagi *yaxshiyam* shaklini qo'llashi orqali o'lchovning aniqligiga erishgan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, birikma holida takrorlanuvchi so'zlar fikrni yanada kuchli va salmoqdor qilishga yordam beradi. Farida Afro'z quyidagi she'rda *mendan xotira bu birikmasini ketma-ket to'rt marta takrorlab takrorning anaforik usulini yaratishga muvaffaq bo'lgan*:

Mendan xotira bu - titragan yulduz,

Mendan xotira bu - yashilli osmon.

Mendan xotira bu - qor bosgan ildiz.

Mendan xotira bu - yaproq za'faron.

She'riyat tilidagi har qanday takror ma'lum darajada ekspressivlikka ega bo'ladi. Chunki unda ta'kid, uqtirish, izchil, izhor ma'nosi ifodalanadi. Shu bilan birga, takrorlanuvchi qism tarkibida emotsional undovlar, modal so'zlar, so'roq olmoshlari kelganda takror ma'nosidagi emotsional-ekspressiv bo'yoq yanada kuchayadi, ta'sirchanlik yuqori darajaga erishadi. Quyidagi misralar bunga yaqqol misol bo'la oladi:

Nahot yashash uchun tug'ilgan bo'lsang,

Nahot kurash uchun yaralgan bo'lsang,

Nahot sukut uchun kelgansan bunga,

Nahot o'lim uchun yaratilgansan?

She'r anaforaga asoslanar ekan, unda emotsional-ekspressiv bo'yoqni qat'iy ta'kidlash modal so'zga yuklatilgan bo'lsa, keyingi misralarda qarshilantirish orqali keyingi ta'kidni obrazli ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan.

Anafora faqat nutqning bezagi tashqi belgisi bo'lib qolmay, balki ma'noni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Bu she'rda birinchi misra ikkinchi misraga qarama-qarshi qo'yiladi. To'rtinchi misra esa hamma fikrni bir nuqtaga jamlab, якуний хулоса чиқаради.

Anafora yangilik o'ramidan iborat bo'lgan holda, fikrni taraqqiy ettira borish asnosida "eng yangi" ning kelib chiqishiga xizmat qiladi. Yoki u "eng yangi" ga aloqador diqqat qaratilgan eng asosiy nuqta bo'lgani uchun ham takrorlanganligi kuzatiladi.

Epifora misralar oxirida ayni bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figuradir. U badiiy nutqni yanada ohangli, ifodali bayon etish uchun qo'llanadi. Bu ko'pincha badiiy asarlarda uchrab, o'zaro qofiyadosh, ohangdosh so'zlarning yoki bir xildagi tovush va qo'shimchalarning takrori asosida vujudga keladi. Epifora misralarda kelish o'rniga ko'ra anaforaga zid tushuncha hisoblanadi

So'z ma'nosidan turli san'atlar yaratish borasida foydalanish quyidagi misralarda ham o'z aksini topgan:

Yaproqlar hazonga **aylandi**,

Hazonlar so'zonga **aylandi**.

So'zonlar to'zonga **aylandi**,

To'zonlar aylandi qoshimda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мусаев А. Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлаклари тартиби: Филология фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2000. – 24 б.
2. Навоий асарлари луғати Тузувчилар: П.Шамсиев ва С.Иброҳимов. Муҳаррир филол. фан. докт. С.Муталлибоев. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 786 б.
3. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари: Олий ўқув юрти талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
4. Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида чун боғловчили гапларнинг синтактик хусусиятлари: Филология фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. 24 б.
5. Раҳмонова М. Абдулла Орипов шеърисида бадий бутунлик: Филология фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.
6. Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: Филология фанлари доктори ...дисс. – Тошкент, 1969. – 47 б.
7. Сабирдинов А. Ойбек шеърисида сўз ва образ: Филология фанлари номзоди ...дисс.автореф. – Тошкент, 1993. – 138 б.